

МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ ЙОШДАГИ БОЛАНИНГ  
РИВОЈЛАНИШИДА ТАРБИЯНАНИГ ОРНИ

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi  
Ergasheva Nodira Ulug'bek qizi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishida tarbiyaning o'rni uning ahamiyati, tarbiya metodlarini bilish va ularni qo'llash, farzand tarbiyasiga bo'lgan munosabat, tarbiya mezonlari va ularni qo'llash haqida ma'lumot berilgan.*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о роли воспитания в развитии ребенка, его значении, знании и применении методов воспитания, отношении к воспитанию детей, критериях воспитания и их применении.

**Annotation:** This article provides information about the role of upbringing in the development of a child about its importance, knowledge and application of methods of upbringing, attitude to raising children, criteria for upbringing and their application.

**Kalit so'zlar:** Sharqona tarbiya, tarbiya qonuniyatları, tarbiyaning asosiy belgilari, pedagogika, aqliy va ongliy faoliyat, insonprvarlik hissi.

**Ключевые слова:** Восточное воспитание, законы воспитания, основные признаки воспитания, педагогика, умственная и сознательная деятельность, чувство человечности.

**Keywords:** Oriental upbringing, laws of upbringing, the main signs of upbringing, pedagogy, mental and conscious activity, human sense of integrity.

*“ Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u o'z bolaligida tarbiya topganidan qarzdordir”.*

**A.S.Makarenko**

Maktabgacha davr – bu bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishga, bilishga ishtiyogi kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviyaxloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda

millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lif muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rabi turgan atrof-muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurishyasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'naliishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejalahtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi.

Tarbiya-ijsitmoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgandavrdan beri mavjud. Alisher Navoiy "Maxbub ul qulub" asarida tarbiyaning kuchi va sharofatini quyidagicha ta'riflaydi: "Itka taalumda chu bo'ldi kamol, Sayd aning ag'zidin o'ddi xalol, olim ul itkim naja sul ayn erur, o'g'ling jahl ulsa, ajab shayn erur. (It o'rganish bilan tutgan ovini eyish mumkin bo'ladi. Eng iflos maxluq hisoblangan it olim bo'lganida (ovlashni o'rganganida) o'g'ling johil qolishi juda xunuk ishdir). Alisher Navoiy tarbiyaning asosiy belgilardan biri, bolaga yaxshi ism qo'yish, ilmu adab o'rgatish, ota-onaga, umuman, kattalarga hurmat hissini singdirihdan iboratligini o'qtiradi.

K.D.Ushinskiyning: "Pedagogika adabiyotining foydasi" nomli risolasida: "Tarbiyalash ishi, shubhasiz, insonning aqliy va ongli faoliyatlaridan biridir: tarbiya tushunchasining o'zi tarixan vujudga kelgan va u tabiatda yo'q, narsadir..... Tarbiyalash faoliyati fikr yuritishni, haqiqatni anglashni ham o'rgatadi", deyilgan.

Bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan mazmunan, hajm va umumlashtirish darjasini jihatidan murakkab bo'lgan insoniy tajribani o'zlashtirish usullarini hali egallanmagan bo'ladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi.

Tarbiya qonuniylari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalardir. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqida tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- Jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- Madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- Ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Bolani mакtabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama jumladan, ma'naviy axloqiy, aqliy, estetik, jismonan va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib boorish yaxshi samar beradi.

U bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga sim qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onasining dastlabki oljanob vazifasi deb biladi. Agar qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotellar bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo'ysalar, boshqa bir faylasuflar esa bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak deydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyani milliylik, zamonaviylikda targ'ib qilib o'rgatish kerak. Buyuk allomalarimizning hayoti, ularning asarlari va albatta mashaqqat yo'llarini o'rnak qilib, ularning ta'lif va tarbiyasiga urg'u berish lozimdir. Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va milliy fazilatlarni maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar ongi va qalbida shakllantirishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rinn tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalari o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshda bolalar yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhim boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish. Kamtarlik, to'g'rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oljanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur.

#### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Yusupova R. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" T."O'qituvchi 1993"y
2. Xasanboyeva O. "Maktabgacha ta'lif pedagogikasi" T."Ilm ziyo" 2006y
3. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika" T."Tafakkur bo'stoni" 2013y
4. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruv malaka ishi. Andijon-2017